

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Asaka Motors International
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan jismoniy shaxs
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm.
Kredit miqdori	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, avtotransport vositasi narxining 74 foiz miqdorigacha
Kredit maqsadi	"Asaka Motors International" MCHJ va uning rasmiy dillerlari tomonidan yetkazib beriladigan "Wuling/Bardosh", "Exeed", "Opel", "Fiat", "Geely" va boshqa rusumdagi avtomashinalarni sotib olish uchun
Kredit muddati	Imtiyozli davrsiz, 30 oydan oshmagan muddatga
Taqdim etish shakli	"Asaka Motors International" MCHJning "Asia Alliance Bank" ATBda ochilgan hisob raqamiga pul ko'chirish yo'li orqali
Boshlang'ich to'lov	Avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, avtotransport vositasi narxining 26 foizdan kam bo'lmagan miqdorida;
Foiz stavkasi	• Boshlang'ich to'lov 26% dan 40% gacha bo'lganda: 21 oydan oshmagan muddatga - yillik 0,0 % • Boshlang'ich to'lov 40% dan 50% gacha bo'lganda: 26 oydan oshmagan muddatga - yillik 0,0 % • Boshlang'ich to'lov 50% va undan yuqori bo'lganda: 30 oydan oshmagan muddatga - yillik 0,0 %
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va h.k.); B) Avtotransport vositasining oldi-sotdi shartnomasi; C) O'zini o'zi band qilganlik to'g'risidagi guvohnoma (kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda); D) Mijoz turmush o'rtog'ining kredit hisobiga sotib olinadigan avtotransport vositasini garovga taqdim etilishiga rozilik arizasi. Turmush o'rtog'i mavjud bo'lmagan hollarda, mijoz tomonidan kredit ajratish uchun ariza berilgan kunga nikohi mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi(lar)ning (mavjud hollarda) daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi

Kredit ta'minoti	• Sotib olinayotgan avtotransport vositasi kredit miqdorining 133.3 foizdan kam bo'lmagan qiymatda garovga qabul qilinadi. • Ta'minot bo'yicha garov shartnomasini notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda rasmiylashtirilgunga qadar qo'shimcha ta'minot talab qilinmaydi.
Kreditni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.
Qo'shimcha shartlar	• Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim; • 0 foiz ustama bilan ajratilgan avtokreditlar doirasida muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha oshirilgan foiz stavkasi MBning asosiy stavkasi 3 barobari miqdorida belgilanadi; • MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi; • Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda, 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi; 60+ 3 tagacha yo'l qo'yiladi. Doimiy rasmiy daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga 90+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi.